



## DOSTON JANRI TARAQQIYOTIDA OYBEKNING O'RNI

**Qosimov Iqboljon**

*Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Oybekning doston janri taraqqiyotiga ayniqsa, o'zbek dostonchiligi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *poema, konsepsiya, sharq, g'arb, Hamza, Qosim, Dilbar, Farhod, Shirin, syujet,*

**Аннотация.** В данной статье говорится о большом вкладе Ойбека в развитие эпического жанра, особенно в развитие узбекского эпоса.

**Ключевые слова:** *поэма, концепция, восток, запад, Хамза, Касым, Дильтар, Фархад, Ширин, сюжет.*

**Abstrakt:** *This article talks about Oybek's great contribution to the development of the epic genre, especially to the development of Uzbek epic.*

**Key words:** *poem, concept, east, west, Hamza, Kasim, Dilbar, Farhad, Shirin, plot*

### KIRISH

XX asr o'zbek adabiyoti xazinasini turli janrdagi nodir asarlari bilan boyitgan Oybek dostonchilik taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shgan desak adashmagan bo'lamiz. Oybek dostonlarida so'zning afsungarona qudratidan mohirlik bilan foydalanib go'zal va betakror manzaralar yaratadi. Shoir dostonlarining badiiy uslubiy xususiyatlari tilimizning ulkan imkoniyatlaridn foydalanib syujetning tadrijiy takomilini ta'minlashida, manzara, voqelik va obrazlarning mukammal, yaxlit, rang-barang tasvirini yuzaga chiqarishida, shakl va mazmun mutanosibligiga, ifoda siqiqligi va hayotiyligi orqali asar jozibadorligiga erishishida, so'zning ma'no va ohang tovlanmalarini uyg'unlashtirish vositasida jonli kartinalarni va ulardagi chizgilarini nozik ilg'ab asarlariga olib kira bilishida, tasvirning mayda tafsillari va tafsilotlari bilan izchil aks ettirgani holda kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashida ko'rindi.

Oybek dostonlarining badiiy uslubiy xususiyatlarini o'rganish ulkan tadqiqotlarni hamda keng tahlillarni talab etadi. Qahramonlarining ko'lamdorligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, ifoda va g'oyaviy salmoqdorligi, individual tasvir usullari bilan ajralib turuvchi ushbu asaralar uzoq asrlik dostonchiligidan an'analari va XX asr poemachiligining eng ilg'or jihatlarini o'zida aks ettirgan qimmatli manbalardir. Shuningdek, ular Sharq va G'arb dostonchiligiga xos an'analarini o'zida ijodiy uyg'unlashtirgan asarlar sifatida ham alohida ahamiyatga molikdir.

Oybek dostonlari davriy ko'laming bepoyonligi, qahramonlarining har jihatdan xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Davrning eng muhim masalalarini va ilg'or g'oyalarini mujassamlashtirgan asarlar taqdim etishni asosiy maqsad qilib qo'ygan shoir barkamol va betakror qahramonlar vositasida o'z niyatini amalga oshiradi. N.Rahimjonov

“Oybek poemalarida ham jismoniy, ham ma’naviy go’zal va o’ktam qahramonlar obrazini yaratish ustivorlik qiladi... Har bir satridagi o’ziga xos yorqin va rangdor obrazlar san’atkor badiiy estetik dunyosining naqadar boyligini, jozibali to’kinligini tasdiqlaydi<sup>65</sup>”, -deganida to’la haqlidir.

### NATIJALAR

Oybekning o’ttizinchi yillarda yaratgan qator dostonlari keyinchalik yaratilajak katta polotnodagi asarlari uchun o’ziga xos ko’prik vazifasini bajargan. Ular ushbu asarlarda aks etadigan davrni chuqur o’rganish, qahramonlar dunyosini keng ifodalash uchun, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Betakror she’riy kartinalar yaratish mahoratiga ega bo’lgan Oybek qator dostonlarida voqelikning jonliligi va haqqoniyligini, kompozitsion puxtalik va syujetning hayotiyligini yuzaga keltiruvchi o’ziga xos uslub yaratarkan, obrazlar mukammalligini ta’minlash borasida qator izlanishlar olib bordi. Shoir uslubiga xos bo’lgan betakrorlik mayda tafsillari va tafsilotlari, ikir-chikirlari va oniy holatlari, nozik tuyg’u va kechinmalari bilan izchil aks etgan xilma-xil kartinalarda ko’rinadi. Oybek dostonlarida ham shoirning tabiatga bo’lgan shunday munosabatini, o’zini tabiatning zarrasi sifatida anglay bilishida ko’rinadi. O’zbek tilining ulkan imkoniyatlaridan foydalanishdagi Oybek mahorati tabiat kartinalaridagi oniy holat va ranglar jilosini rassomona nigoh bilan misralarga olib kira bilganligida, ularga qahramon va personajlarning qiyofalari hamda nozik tuyg’ulari singib ketganligida namoyon bo’ladi.

### MUHOKAMA

Oybekning “Dilbar-davr qizi” dostoni XX asr boshlarida ilm-fan taraqqiyoti natijasida voyaga yetgan shaxs haqida. Doston voqeligi o’tinchi Qosim boboning qashshoqlikdagi kechmishi-qirq besh yoshida bir tul juvonga uylanib,farzand ko’rishi,qizi Dilbarning besh yoshida onasidan yetim qolishi voqealari bilan boshlanadi. Kattagina hovlida “qamal bo’lgan quyosh”ga Qosim ham otalik,ham onalik qilarkan,yillar o’tib Dilbaroy “Yirik qora ko’zlari, biyron o’tkir so’zlari aql, tuyg’unlikka boy” bo’lib yetishadi. A.Sabirdinov Oybekning qahramon va davrning mayda tafsilotlari bilan aks ettirish uslubi Alisher Navoiydan ta’sirlanishida, deb biladi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Shirinning yetti kanizagi turli bilim va hunarlarning sohibasi sifatida aks etishi Oybekning “Dilbar-davr qizi” dostonidagi mehnatkash qizlarning fazilatlariga o’xshashligini ko’rsatish orqali an’ana va o’ziga xos uslub, ijodiy ta’sir masalasini yoritadi. “Oybekning ushbu asarida ba’zan o’z muhiti qarashlarini aks ettirgan siyosiy kurashlarga tarafkashlik nuqtai nazaridan yondashilgan o’rinlar mavjudligini ham inkor etib bo’lmaydi. Ammo bu jihatlar doston mavzu va g’oyasining dolzarbligini, badiiy ahamiyatini pasaytirmaydi<sup>66</sup>”.

<sup>65</sup> Rahimjonov N. “Oybek poemalarida qahramon konsepsiysi” Toshkent, Fan 1995.

<sup>66</sup> Sabirdinov A. Oybek dostonlarining badiiy-uslubiy xususiyatlari. – Toshkent 2003.

A.Sabirdinov Oybekning ijodiy laboratoriyasiga mumkin qadar kirib borgani holda, dostonning qo‘lyozma varianti bilan keyingi variantlarini o‘zaro solishtiradi. Uning qayd etishicha, birinchi variantdagi ba’zi g‘alizliklar ikkinchi variantda to‘g‘rilangan, to‘ldirilgan. Bular qofiya, ifodalilik, ohangdorlikni o‘z ichiga oladi.

A.Sabirdinov Oybekning “Hamza” dostoniga to‘xtalar ekan, Farg‘onaning maftunkor tabiatini va shoirning betakror tuyg‘ularini uyg‘un holda ifodalash usulini ko‘radi. U vodiyning go‘zal tabiatini yo‘g‘rilgan satrlarda yozuvchining peyzaj kartinasini chizish mahorati va o‘sha yillarning qiyinchiliklari aks ettirilganini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birgalikda vodiy tabiatining takrorlanmas manzarasida shoirning kayfiyati namoyon bo‘ladi. “XX asr o‘zbek dostonchiligining eng yaxshi durdonalaridan bo‘lgan ushbu asar, obrazli ifodalar va badiiy vositalardan liro-epik tasvirda mahorat bilan foydalanishning yuksak namunasi sifatida ham ahamiyatlidir<sup>67</sup>”.

### XULOSA

Umuman olganda Oybek o‘zining nodir dostonlari bilan nafaqat o‘zbek balki butun turkiy adabiyotni boyitdi. . Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar, tabiiyki, Oybek asarlarining tadqiqi va talqinida yangicha yondashuvlar zarurligini kun tartibiga qo‘ydi. Oybek ijodini o‘rganish borasida sho‘ro davri adabiyotshunosligidagi ulkan tadqiqiotlar hamda izlanishlardagi yutuqlarni yuqori baholagan holda, mafkuraviy cheklovlar natijasida biryoqlama yondashilgan asarlarga xolis va haqqoniy baho berish zaruriyatini ham yuzaga kelganligini ham unutmaslik kerak. Badiiy dostonchilikda Oybek ijodiga baho berish ijtimoiy-siyosiy voqelikning dolzarb masalalari talqiniga ko‘ra baholashdan badiiyat, mahorat, uslub masalalari, matnosti ma’nolarini o‘rganish uning turli variantlarini taqqoslash tomon yuz burdi. Ulug‘ shoirning dostonchiligidimiz taraqqiyotidagi o‘rni xalq og‘zaki ijodi, Sharq va G‘arb adabiyoti an’analarini davom ettirish borasidagi mahoratini yoritish orqali ko‘rsatib berildi. Oybek dostonlari ham vaqt atalmish odil hakam sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o‘tib, betakrorligini, abadiylikka daxldor hodisalardan ekanligini isbot etmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sabirdinov O. Oybek dostonlarining badiiy-uslubiy xususiyatlari Toshkent.”Istiqlol”-2003
2. Sobirov O. Oybek ijodida folklor.-Toshkent Adabiyot va san’at, 1975 97.
3. Rahimjonov N. Oybek poemalarida qahramon konsepsiysi. // Oybek ijodiy metodi va badiiy mahorati: Toshkent Fan, 1995 49-bet
4. Qo‘sjonov M. Oybek mahorati Toshkent Badiiy adabiyot 1965.
5. Oybek. Adabiyot to‘g‘risida. Toshkent Fan, 1985 28-bet
6. Rahimjonov N. O‘zbek sovet adabiyotida poema. Toshkent Fan, 1986 44-bet
7. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. Toshkent 13-bet

<sup>67</sup> Sabirdinov A.Oybek dostonlarining badiiy-uslubiy xususiyatlari.-Toshkent 2003.

8. Qo'shjonov M. Mohiyat va badiiyat. T. Fan, 1979. 286-bet
9. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. T Adabiyot va san'at. 1979. 152-bet
10. Karimov N Oybek gulshanida qolgan g'unchalar. T Fan, 1985 64-bet.
11. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem " Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
12. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
13. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11).
14. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*
15. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature. *ANGLISTICUM. Journal of the Association Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 47-51.
16. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. *Theoretical & Applied Science*, (1), 235-240.
17. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
18. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
19. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
20. Jo'rayev, H., & Anvarova, D. (2022). Investitsiya, investitsion muhit, jozibadorlik, investorlar huquqi, Investitsiya kodeksi, investitsion ombdusman, moliyalashtirish manbalari, to 'g 'ridan-to 'g 'ri investitsiyalar, mahalliy investitsiya. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 329-332.
21. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1318-1322
22. Jo'rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(7), 452-454.
23. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 317-322.